



IJTIMOIIY TARMOQLARDA QO‘LLANILAYOTGAN NEOLOGIZMLAR
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.078>

M.Sh.Nuriddinova

*Qo‘qon davlat universiteti stajyor o‘qituvchisi
e-mail:mnuriddinova1992@mail.ru*

Annotatsiya Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar muhitida ingliz va o‘zbek tillarida shakllanayotgan neologizmlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda neologizmlarning paydo bo‘lish sabablari, semantik va pragmatik xususiyatlari hamda ularning zamonaviy nutqdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan neologik birliklar va ularning moslashuv jarayonlari misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli muloqot sharoitida tilning dinamik rivojlanishini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, neologizm, raqamli muloqot, o‘zlashma leksika.

Аннотация В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются неологизмы, формирующиеся в английском и узбекском языках в среде социальных сетей. В исследовании рассматриваются причины возникновения неологизмов, их семантические и прагматические особенности, а также их роль в современном речевом употреблении. Кроме того, на основе примеров анализируются неологические единицы, заимствованные из английского языка в узбекский, и процессы их адаптации. Результаты исследования демонстрируют динамичное развитие языка в условиях цифровой коммуникации.

Ключевые слова: социальные сети, неологизм, цифровая коммуникация, заимствованная лексика.

Annotation This article provides a linguistic analysis of neologisms emerging in English and Uzbek within the context of social media. The study examines the factors contributing to the formation of neologisms, their semantic and pragmatic features, as well as their role in contemporary discourse. In addition, neological units borrowed from English into Uzbek and the processes of their adaptation are analyzed through illustrative examples. The findings highlight the dynamic development of language in the context of digital communication.

Keywords: social media, neologism, digital communication, borrowed vocabulary.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar global muloqotning asosiy platformalaridan biriga aylandi. Ushbu raqamli makon yangi tushunchalar, hodisalar va

kommunikativ ehtiyojlarning paydo bo‘lishiga olib kelib, til tizimida yangi leksik birliklar — neologizmlarning shakllanishini jadallashtirdi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro mavqei sababli ko‘plab neologizmlar boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham faol kirib kelmoqda.

Tilshunoslikda neologizmlar tilning yangilanish jarayonini ifodalovchi muhim hodisa sifatida baholanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan neologizmlar esa tilning texnologik va madaniy omillarga moslashuvchanligini namoyon etadi. Shu o‘rinda neologizm tushunchasiga kengroq ta’rif berib o‘tsak: “Til o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida doimo rivojlanib, takomillashib boradi. U dinamik xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, lug‘atni yangi leksik birliklar bilan boyitishi mumkin. Neologizmlar innovatsion til elementlarining bir turi hisoblanadi. Ularni miqdoriy jihatdan baholab bo‘lmaydi, chunki ularning ko‘pchiligi chetda muvozanatlashadi.⁹¹ Neologizm — bu til tizimida yangi paydo bo‘lgan yoki mavjud so‘zning yangi ma’noda qo‘llanishi natijasida shakllangan leksik birlikdir¹. Neologizmlar jamiyat hayotidagi yangiliklar, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy tarmoqlar neologizmlarning tezkor tarqalishiga qulay sharoit yaratadi. Bu muhitda yangi so‘zlar qisqa vaqt ichida keng auditoriya tomonidan qabul qilinib, faol nutqiy birlikka aylanishi mumkin.

TAHLIL. Zamonaviy o‘zbek tili axborot texnologiyalarining jadal rivoji va internetning keng tarqalishi natijasida dinamik taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda. Ta’kidlash joizki, raqamli davr kundalik muloqotga yangi ifoda shakllarini olib kirdi va bu holat tilning leksik tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Internet kommunikatsiyasi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki yangi til me’yorlari va tendensiyalarini shakllantiruvchi kuchli omilga aylandi. Tarmoq foydalanuvchilari yangi so‘z va iboralarni yaratish hamda ommalashtirish jarayonida faol ishtirok etib, tilning tez yangilanishi va zamonaviy voqelikka moslashuviga xizmat qilmoqdalar⁹².

Internetning o‘zbek tiliga ta’sir ko‘rsatishidagi eng sezilarli jihatlaridan biri ijtimoiy tarmoqlar va madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab neologizmlarning paydo bo‘lishidir. *Smartfon, selfi, bloger, strim qilish, storis joylash, follow qilish, like bosish, komment yozish, post qo‘yish, piar, fake habar, plagiat, share qilmoq, repost* kabi yangi so‘z va iboralar Instagram, telegram, facebook, snapchat, whatsapp kabi ijtimoiy tarmoqlarda keng foydalanilmoqda. Bunday til birliklari nafaqat zamonaviy voqeliklarni ifodalashda, balki texnologiyalar va raqamli muhitni idrok etish jarayonini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, o‘zbek tili ingliz tilidan o‘zlashgan birliklarni faol tarzda qabul qilib, ularni o‘zining leksik tizimiga moslashtirmoqda. Masalan, *layk bosish* («yoqtirish») belgisini qo‘yish) yoki *follower (obunachi)* kabi birliklar Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi tufayli o‘zbek tilida keng tarqalgan. Ushbu ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalib borayotgan neologizmlar

⁹¹ Valeriivna B. T. NEOLOGISMS IN INTERNET DISCOURSE: DYNAMICS OF LINGUISTIC INNOVATION IN DIGITAL COMMUNICATION //ЛЪВІВСЬКИЙ ФІЛОЛОГІЧНИЙ ЧАСОПИС. – 2024. – С. 24.

⁹² Шавкатов Ш. Б. Влияние технологии интернета на развитие узбекского языка. – 2025.

bevosita madaniyatga va so‘zlashuv uslubining o‘zgarishiga ham tasir qiladi. Zero L.V.Shcherba tabiri bilan aytganda “Ona tili leksikasida yuz berayotgan har qanday o‘zgarishlar ushbu tilde so‘zlashuvchilar e’tiborini albatta tortadi, har bir madaniyatli xalq o‘z tilining lug‘at tarkibida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni doimo kuzatib borishi lozim”⁹³.

Tadqiqot usullari: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanilayotgan neologizmlarni tahlil qilish uchun bir qator lingvistik tadqiqot usullari qo‘llanildi. Ularning tanlanishi tadqiqotning maqsadi — tilning raqamli muhitdagi dinamik rivojlanishini, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash — bilan izohlanadi. Ingliz va o‘zbek tilidagi neologizmlar o‘zaro solishtirilib, o‘zlashuv va moslashuv jarayonlari tahlil qilindi. Masalan, ingliz tilidagi *follower* so‘zi o‘zbek tiliga *obunachi* shaklida o‘zlashtirildi va grammatik jihatdan moslashtirildi. Shu usul yordamida neologizmlarning ikki til o‘rtasidagi fonetik, morfologik va semantik o‘zaro aloqalari aniqlanadi, shuningdek, o‘zbek tilida ularning integratsiyasi va ishlatilish doirasi ko‘rsatildi (Yule, 2017)⁹⁴. Kontekstual tahlilda esa neologizmlarning real nutqiy vaziyatlardagi ishlatilishini o‘rganish maqsadida kontekstual tahlil qo‘llanildi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlarda *story joylamoq* iborasi faqat “rasm yoki video joylamoq” ma’nosini emas, balki foydalanuvchining faoliyatini namoyon qilish va auditoriya bilan interaktiv muloqot qilishni ham anglatadi. Shu usul yordamida neologizmlarning pragmatik funksiyalari, emotsional-ekspressiv qiymati va stilistik xususiyatlari aniqlanadi.

XULOSA. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan ingliz va o‘zbek tilidagi neologizmlar lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhit tilning dinamik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishini jadallashtiradi. Ingliz tilidagi neologizmlar, masalan, *hashtag*, *streaming*, *follower*, o‘zbek tilida *layk bosish*, *strim qilish*, *obunachi* kabi o‘zlashma birliklar orqali faol qo‘llanilmoqda.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tiliga kirib kelayotgan ingliz tilidagi birliklar nafaqat ma’nosini saqlab qoladi, balki tilning grammatik va morfologik tizimiga moslashadi. Shu bilan birga, kontekstual tahlil orqali ularning pragmatik va emotsional-ekspressiv funksiyalari aniqlanib, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning nutqiy faoliyatini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatildi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tilidagi neologizmlarning tarqalishi va ishlatilishi global va mahalliy kommunikatsiya jarayonlariga bog‘liq bo‘lib, tilning zamonaviy ijtimoiy va madaniy sharoitga moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Shu tariqa, neologizmlarning paydo bo‘lishi va faol ishlatilishi tilning yangilanishi, madaniyatlararo aloqaning rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya jarayonlarining samarali amalga oshishiga xizmat qiladi.

⁹³ Щерба Л. В. О словарях живого литературного языка // Современная русская лексикография: сб.ст. М. : Наука, 1966. С. 74–77

⁹⁴ Yule, G. *The Study of Language*. Cambridge University Press, 2017.

Kelgusida, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan neologizmlarni tizimli o‘rganish o‘zbek tilining leksik siyosati, lug‘atshunoslik va raqamli kommunikatsiya tahlilida muhim ilmiy va amaliy natijalarni ta’minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Valeriivna b. t. Neologisms In Internet Discourse: Dynamics Of Linguistic Innovation In Digital Communication //Львівський Філологічний Часопис. – 2024. – С. 24.
2. Шавкатов Ш. Б. Влияние технологии интернета на развитие узбекского языка. – 2025.
3. Yule, G. *The Study of Language*. Cambridge University Press, 2017.
4. Щерба Л. В. О словарях живого литературного языка // Современная русская лексикография: сб.ст. М. : Наука, 1966. С. 74–77